

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Abduraxmonov	
Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish	199
B.B.Umarov	
Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi.....	203
R.Mardonov	
G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama	207
X.O'Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi	210
Z.A.Boboyeva	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari.....	217
G.U.Radjabova	
Ta'lif tizimi va ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari	220
N.N.Bobojonov	
Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	226
E.S.Yuldashev	
Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli	231
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	236
A.M.Toshpo'latov	
Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi.	241
I.A.Maxmudova	
Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida	247
A.N.Qosimov	
Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish	250
F.Sharipova	
Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish	255
G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov	
7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi	260
Z.Hamrayeva	
Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari.....	263
U.Jabborov	
11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari	269
M.Kataeva	
Ta'lif jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati	275
O.Yadgarova	
Shaxsn o'rganishda proyektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari	279
I.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish	283
M.Babakulova, M.Radjabova	
Interfaol ta'lif texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish	288
X.Tojiyev	
Bo'lajak harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari	292
D.Buranova	
Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida	300
D.Yo'idosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	303
G.Abdullayeva	
Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihat.....	308

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA OLIY TA'LIM JARAYONIDA YUZAGA
KELADIGAN NIZOLARNI PEDAGOGIK TASHXIS ETISH**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА КОНФЛИКТОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В
ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ**

**PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC OF CONFLICTS ARISING IN THE PROCESS OF
HIGHER EDUCATION BASED ON MODERN APPROACHES**

Imomov In'omiddin Abdulxamidovich¹

Imomov In'omiddin Abdulxamidovich¹

– Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotasiya

Mazkur maqolada muallif pedagogik nizolarni ta'lum-tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi hodisa sifatida o'rjan bo'lib, u oliv ta'lum muassalarida vujudga keladigan pedagogik nizolar va nizoli vaziyatlar sabablarini pedagogika fani nuqtai nazaridan ochib bergen. Institut va universitetlardagi nizoli vaziyat va nizoning mohiyati, manfaatlar to'qnashushi, oliv ta'lum muassasasi rahbari, pedagoglar, talabalar hamda ota-onalarning ta'lum jarayoni nizolarini vujudga kelishidagi ishtiroki bayon qilingan. Nizoning mazmuni, davomiysi, nizolar negizini hosil qiluvchi qarama-qarshiliklarning darajalari, nizoning yuzaga kelish vaqt, ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyat mazmuni, nizoli vaziyatning psixologik xususiyatlari, nizoni namoyon bol'sh holatiga ko'ra turlari milliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlarini tahlil qilish natijasida ko'rib chiqilgan. Pedagogik nizo va nizoli vaziyat tushunchalarining ta'rifni ishlab chiqilgan. Olyi ta'lum muassasalari talabalari o'rtaida nizoli vaziyat va nizolarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlar ro'yhati va ularning tasnifi to'liq keltirilgan. Olyi ta'lum muassasalari talabalari o'rtaida vujudga keladigan o'ta murakkab va nozik nizoli vaziyat va nizolarni pedagogik jihatdan tahlil qilish natijasida ularni samarali boshqarishni kafolatlovchi sabablarni aniqlashning zamonaviy yondashuvlari taklif qilingan.

Аннотация

В данной статье автор изучил педагогические конфликты как явление, возникающее в процессе обучения, раскрыл причины возникновения педагогических конфликтов и конфликтных ситуаций, возникающих в вузах с точки зрения педагогики. Описаны конфликтные ситуации в вузах и характер конфликтов, конфликт интересов, участие руководителя вуза, педагогов, студентов и родителей в возникновении конфликтов в учебном процессе. Содержание конфликта, продолжительность, уровни противоречий, составляющих основу конфликта, время возникновения конфликта, содержание совместной деятельности участников, психологическая характеристика конфликтной ситуации, виды конфликтов по степени их проявления. В результате анализа работ отечественных и зарубежных исследователей, разработано определение понятий педагогический конфликт и конфликтная ситуация. Приведён полный перечень конфликтных ситуаций и конфликтогенного поведения у студентов высших учебных заведений и дана их классификация. В результате анализа, с точки зрения педагогики, весьма сложных и деликатных конфликтных ситуаций, возникающих у студентов высших учебных заведений, предлагаются использовать современные подходы к выявлению причин, гарантирующих их эффективное управление.

Abstract

In this article, the author studied pedagogical conflicts as a phenomenon that occurs in the learning process, revealed the causes of pedagogical conflicts and conflict situations that arise in universities from the point of view of pedagogy. Conflict situations in universities and the nature of conflicts, conflicts of interest, participation of the head of the university, teachers, students and parents in the occurrence of conflicts in the educational process are described. The content of the conflict, duration, levels of contradictions that form the basis of the conflict, the time of the conflict, the content of the joint activities of the participants, the psychological characteristics of the conflict situation, the types of conflicts according to the degree of their manifestation. As a result of the analysis of the works of domestic and foreign researchers, a definition of the concepts of pedagogical conflict and conflict situation has been developed. A complete list of conflict situations and conflict-generating behavior among students of higher educational institutions is given and their classification is given. As a result of the analysis, from the point of view of pedagogy, very complex and delicate conflict situations that arise among students of higher educational institutions, it is proposed to use modern approaches to identifying the reasons that guarantee their effective management.

Kalit so'zlar: munosabat, nizo, jarayon, talaba, yondashuv, tashxis etish, faoliyat, sabab, ta'lum muassasasi.

Ключевые слова: отношение, конфликт, процесс, студент, подход, диагностика, деятельность, причина, образовательное учреждение.

Key words: attitude, conflict, process, student, approach, diagnostics, activity, cause, educational institution.

KIRISH

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida uning ishtirokchilari o'rtasida muayyan nizolar yuzaga keladi. Ishtirokchilarning amalga oshirilayotgan faoliyat (ishning bajarilishi)ga bo'lgan munosabatlari, nizoni yuzaga keltiruvchi vaziyatni turlicha talqin etishlari, qarshi tomon ishtirokining salbiy yoki past baholashlari, faoliyatni tashkil etishdagi shaxsiy rolni bo'rttirib ko'rsatishlari, sabablarni chuqur tahlil qilmasliklari va eng muhim nizoni o'z o'rni, vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilamasliklari pedagogik nizolarning kelib chiqishi uchun sharoit yaratadi.

Ko'p sonli va turli yoshdagi sub'ektlarga egalik, har bir sub'ektning individual ravishda psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarni namoyon etishi, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda turli darajada faollik ko'rsatishi ta'limga muassasalarini faoliyatini tashkil etishda u yoki bu ko'rinishdagi pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Ta'limga jarayoni ishtirokchilarining boshqaruvchi va bo'yusunuvchi (ta'limga muassasasi rahbari, pedagoglar jamoasi, pedagog, talaba, talabaning ota-onasi), nazoratchi va nazorat qilinuvchi, buyruq beruvchi va ijro etuvchi kabi ikki yirik guruhga ajralishlari hamda ular o'rtasidagi yosh, bilim, hayotiy tajriba o'rtasidagi farqning kattaligi esa pedagogik nizolarning sodir bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

"Pedagogik nizo" tushunchasini shaxsning ta'limi va tarbiyasiga dahldor sub'ektlarning faoliyatlari nuqtai nazardan izohlash to'g'ri bo'ladi. Ya'ni:

Pedagogik nizo – bu ta'limga va tarbiya jarayonida uning ishtirokchilari (ta'limga muassasalarining rahbarlari, pedagoglar jamoasi, talabalar hamda ularning ota-onalari) o'rtasida yuzaga keladigan va bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlar to'qnashuvi sanaladi. Demak, pedagogik nizolar deganda pedagog va talaba o'rtasidagi ta'limga jarayonida kuzatiladigan nizolar, tortishuvlar kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar nazarda tutilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rus pedagoglaridan biri V.A.Suxomlinskiy pedagogik nizolarni "institut yoki universitet faoliyatiga xos bo'lgan jiddiy, murakkab va ko'ngilsiz hodisa" deb ta'riflaydi. Ya'ni "pedagog va bola o'rtasidagi, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi, pedagog va jamoa o'rtasidagi nizolar – institut yoki universitet faoliyatiga xos bo'lgan jiddiy, murakkab va ko'ngilsiz hodisadir. Nizo ko'pincha pedagogning talaba shaxsi to'g'risida noto'g'ri o'ylashi sababli kelib chiqadi. Bola tshaxsi to'g'risida ijobiy fikrda bo'lish pedagogik nizolar kelib chiqishining oldini oladi. Nizolarga yo'l qo'ymaslikka erishish – pedagogning pedagogik zukkoligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Nizoni oldini olib pedagog jamoaning tarbiyaviy kuchini saqlaydi va hosil qiladi" [1].

Pedagogik nizolar ta'limga jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi turli sohalarda tashkil etiladigan munosabatlarni qamrab oladi. Nizolarni ularning turli ko'rsatkichlari bo'yicha turkumlashtirish mumkin. Pedagogik nizolar davomiyligiga ko'ra:

1) tezda yakun topadigan nizolar (juda yuqori hissiyotli harakatlar bilan boshlanib, o'zida nizoga kirishuvchilarning chuqur salbiy munosabatlarini aks ettiradi; bu kabi nizolar og'ir va foijiali yakun topishi ham mumkin);

2) uzoq muddat davom etadigan nizolar (tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlar yetarli darajada chuqur, barqaror, murakkab bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keladi; bunday nizolarni hal qilish oson emas);

3) kuchsiz, sust kechadigan nizolar (u qadar keskin tus olmagan qarama-qarshiliklarni namoyon etadigan nizolar bo'lib, ular, odatda, ziddiyatga kirishayotgan tomonlardan birining faolligi, ikkinchi tomonning esa imkon qadar nizodan qochishi bilan tavsiflanadi; bu kabi nizolarning yechimini topish ham bir muncha qiyin; ularning yechimi tashabbuskor tomonning qaroriga bog'liq bo'ladi);

4) kuchsiz, tez kechadigan nizolar (o'zaro qarama-qarshiliklar, to'qnashuvchilarning bir qadar ijobiy shakli bo'lib, agarda u ziddiyatga kirishuvchi tomonlar o'rtasidagi yagona nizo bo'lsa, u holda uni ijobiy hal qilish imkoniyati mavjud).

Shuningdek, pedagogik nizolar yuzaga kelish vaqtin, birgalikdagi faoliyat mazmuni, psixologik xususiyatlari hamda namoyon bo'lish holati nuqtai nazardan ham bir necha turlarga ajratiladi. Ya'ni:

I. Yuzaga kelish vaqtiga ko'ra: 1) doimiy nizolar; 2) muayyan muddatli (bir marta yoki bir necha marta namoyon bo'ladigan) nizolar.

II. Birgalikdagi faoliyat mazmuna ko'ra: 1) ta'limga olish bilan bog'liq (o'quv) nizolar(i); 2) tashkiliy nizolar; 3) mehnat nizolari; 4) shaxslararo nizolar va boshqalar.

III. Psixologik xususiyatlarga ko'ra: 1) rasmiy nizolar; 2) norasmiy muloqot jarayonida yuzaga keluvchi nizolar [7].

IV. Namoyon bo'lish holati nuqtai nazardan: 1) ochiq nizolar; 2) yashirin (yopiq) nizolar.

Yashirin nizo ikki shaxs orasida mavjud bo'lib, ma'lum vaqtgacha ular orasida mojaroborligini berkitib yurish mumkin. Ulardan birining sabri chidamay qolsa bu nizo ochiq nizoga aylanishi mumkin. Yana stixiyali paydo bo'ladigan va davriy yuzaga chiqadigan, ig'vo orqali yuzaga keladigan nizolar ham mavjud. Nizoni boshqa turi fitna ham bo'lismi mumkin. Fitna tashabbuskor tomonidan qasddan qilingan vijdonsizlarcha harakat bo'lib, shaxs yoki jamoani ma'lum harakatga majbur qilib, zarur [3].

Shuningdek, ta'llim jarayonining ishtirokchilari o'tasida kelib chiqadigan nizolar ular negizini hosil qiluvchi qarama-qarshiliklarning darajalari bo'yicha ham guruhlarga ajratiladi. Jumladan: 1) qoniqmaslik; 2) fikrlarning xilma-xilligi; 3) qarama-qarshilik; 4) janjal; 5) dushmanlik [2].

Garchi, pedagogik nizolar turlicha guruh yoki turkumlarga ajratilsalar-da, biroq ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Rivojlanish davrida nizolar bir turdag'i ko'rinishdan ikkinchi turdag'i ko'rinishga o'tishi mumkin.

M.M.Ribakova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lismicha, har qanday ijtimoiy nizolar kabi pedagogik nizolarning kelib chiqishida ham boshlang'ich asos – bu vaziyat sanaladi. [3]

Nizoli vaziyat – bu ob'ektiv narsalar shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilingan pedagogik jarayonning murakkab ob'ektiv-sub'ektiv holati bo'lib, u ishtirokchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi. V.I.Andreev nizoli vaziyatlar "ikki yoki undan ortiq tomonlar – ishtirokchilarning yopiq yoki ochiq o'zaro kurashishi bo'lib, ularning har biri o'zları uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni yechish maqsadi, sabablari, vositalari va usullariga ega" ekanligiga e'tiborni qaratadi [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'llim muassasalarida yuzaga keladigan nizolar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- pedagogning vaziyatni pedagogik to'g'ri hal qilishga kasbiy mas'uliyat: axir OTM – talabalar insonlar orasidagi munosabatlar ijtimoiy qoidalarini o'zlashtiradigan jamiyat modelidir;
- nizolar ishtirokchilari turli ijtimoiy mavqelarga ega bo'ladilar (pedagog – talaba), nizodagi turli xulqlari shu bilan belgilanadi;
- ishtirokchilarning yoshi va hayotiy tajribasidagi farq nizodagi ularning qarashlarini ajratadi, nizoni hal qilishda xatolar uchun turli darajadagi mas'uliyatni keltirib chiqaradi;
- ishtirokchilarning hodisalarni va ularning sabablarini turlicha tushunishlari (nizoga "pedagogning ko'zi bilan" va "talabaning ko'zi bilan" turlicha qarashlar), shuning uchun pedagogga bolaning kechinmalari chuqurligini tushunish, talabaga esa – o'zining hayajonlarini boshqarish, aql bilan ish tutishi qiyin bo'ladi;
- nizo paytida boshqa talabalarning kuzatishlari ularni guvohlardan ishtirokchilarga aylantiradi, nizo esa ular uchun ham tarbiyaviy mazmunga ega bo'ladi; bu to'g'risida pedagog doim yodida tutishiga to'g'ri keladi;
- nizoda pedagogning kasbiy holati uni hal qilishda tashabbusni o'z qo'liga olishiga majbur qiladi va birinchi o'ringa shakllanayotgan shaxs sifatida talabaning manfaatlarini qo'ya bilishini talab qiladi;
- nizoni hal qilishdagi pedagogning har qanday xatosi yangi vaziyatlarni va nizolarni keltirib chiqaradi, unga boshqa talabalar ham aralashadilar;
- pedagog darsda talabalar xulqlarini taxmin qilish bo'yicha ega bo'lgan imkoniyatning ozligi; ularning harakatlari kutilmaganligi ko'pincha darsning rejalashtirilgan borishini buzadi, pedagogda g'azablanish va har qanday yo'l bilan "to'siqlarni" olib tashlashga intilishini keltirib chiqaradi; sodir bo'lgan hodisa to'g'risida axborotning yetishmasligi tegishli yo'l tutishni va shunday sharoitlarda murojaat etish ohangini qiyinlashtiradi;
- boshqa talabalar ham vaziyat guvohlari bo'ladilar, shuning uchun pedagog har qanday yo'l bilan o'zining ijtimoiy mavqeini saqlab qolishga intiladi va shu bilan ko'pincha vaziyatni nizogacha olib boradi;
- pedagog odadta talabaning alohida harakatlarini emas, balki uning shaxsini baholaydi, bunday baho ko'pincha talabaga boshqa pedagoglar va tengdoshlarining (ayniqsa boshlang'ich institut yoki universitetda) munosabatlarini ko'rsatadi;

- talabaga baho berish ko'pincha uning harakatlarini sub'ektiv tushunish va uning motivlari to'g'risida, shaxsning xususiyatlari, oiladagi hayotiy sharoitlari to'g'risida kam axborotga ega bo'lishi asosida quriladi;
- pedagog vujudga kelganvaziyatni tahlil qilishga qiynaladi, talabani jazolashga shoshiladi, talabaga nisbatan ortiqcha talabchanlik zarar qilmaydi deb hisoblaydi;
- pedagog va alohida talabalar o'rtasidagi vujudga kelganmunosabatlar xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi; talabalarning shaxsiy sifatlari va nostandard xulqlari ular o'rtasidagi doimiy nizolar sababi hisoblanadi;
- pedagogning shaxsiy xususiyatlari (jahldorlik, qo'pollik, qasoskorlik, mag'rurlik, ilojsizlik va boshqalar) ham ko'pincha nizolar sababi bo'ladi; talabalar bilan o'zaro munosabatlarda pedagogning ustuvor kayfiyati, pedagogik ishlarga qiziqishi, pedagogik qobiliyati yo'qligi, pedagogning hayotiy muvaffaqiyatsizliklari, pedagogik jamoadagi umumiy muhit va ishlarni tashkil qilinishi qo'shimcha omillar sifatida ishtirok etadi. Vaziyatlarni va nizolarni hal qilishda pedagogning har qanday xatosi talabalarning xotiralarida qoladi va o'zaro munosabatlarga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatishini esdan chiqarmaslik kerak;
- darslardagi, ayniqsa, o'smir yoshlar sinflaridagi nizolar ko'pchilik tomonidan odatiy, qonuniy deb tan olinadi;
- pedagog turli yoshdagagi talabalar o'rtasidagi amaliy o'zaro aloqalarni kuchaytirib ularning jamoali o'quv faoliyatlarini tashkil qilishni bilishi kerak; bunday nizolar ko'proq birinchi o'rinda faqatgina fanni o'zlashtirish darajasi bilan qiziqadigan pedagoglar faoliyatida ko'zga tashlanadi, aksincha, talabalarni yaxshi biladigan va ular bilan aloqa qilish turli shakllarini topadigan pedagog tomonidan olib boriladigan darslarda va boshlang'ich sinflarda ular ancha kam sodir bo'ladi;
- odatda fanni yaxshi o'zlashtirmagan, xulqi "qiyin" talabalar bilan darsdagi vaziyat nizogacha yetib boradi. Shuning uchun pedagogning o'zining foydasi uchun aynan shunday talabalarni yaxshiroq o'rganish, topshiriqni bajarishda o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida ularga e'tiborli bo'lish kerak;
- xulqi uchun fan bo'yicha yomon baholar bilan jazolash kerak emas — bu ijobjiy natijalarga olib kelmaydi, balki faqatgina pedagog bilan uzoq shaxsiy nizo keltirib chiqaradi, bu holat albatta fanga qiziqishini pasaytiradi;
- pedagogik faoliyatda nizoni samarali hal qilishdan uning oldini olish oson.

Pedagogik nizolarda har qanday adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlarda yakkahokimlikning yetakchi o'rin tutishiga nisbatan murosasizlik kabilar ham pedagogik nizolarning o'zigagina xos bo'lgan muhim xususiyatlar sanaladi. Har qanday nizoning oqibatlari talabalar shaxsining keyingi rivojlanishlarida o'z aksiga ega bo'lib boradi, shuningdek, ularning kelgusi taqdirlariga ham sezilarli ta'siri o'tkazadi. Demak, murakkab nizoli vaziyat pedagog va talabalarning maqsadlari, vazifalari, sabablari va ishtirokchilarning shaxsiy imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmasligi kuzatiladigan bir qadar og'ir sharoitlardagi o'zaro harakatlaridan farq qiladi. Bu o'rinda bir-biriga mos kelmasligi darajasi nizoli vaziyatning murakkablik hamda qiyinlik darajasiga bilan aniqlanadi [5].

Odatda ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilar o'rtasida muammoli nizolarni keltirib chiqarishda ular tomonidan tashkil etilayotgan ayrim xatti-harakatlar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lif oluvchilarning nizolarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlari sirasida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: [4]

- 1) nizoli holatlarni kelib chiqaruvchi xatti-harakatlar (masalan, intizomni buzish, atrofdagilarga nisbatan qo'pollik qilish, betga choparlik, pedagoglar, ta'lif muassasalarining rahbarlari, ota-onalar yoki mas'ul shaxslarning ko'rsatmalarini bajarmaslik, quloq solmaslik, yolg'on ishlatish);
- 2) o'z noroziligini uyatl so'zlar bilan ifodalash, pedagoglarning xatti-harakatlari va hulqini keskin tanqid qilish);
- 3) yashirin qarshilik ko'rsatish (pedagogik talablarga bo'y sunmaslik, pedagogik qarashlarga salbiy munosabatda bo'lish, pedagoglar bilan muloqotga kirishdan bosh tortish, darslarni qoldirish);
- 4) sust qarshilik ko'rsatish (nafratni so'zsiz ifodalash, achchiqlanish, xafa bo'lish, ko'z yoshi qilish);
- 5) buzg'unchi xatti-harakatlar va hulqiy ko'rinishlarni sodir etish ("savollar berish, pedagog (pedagog)ning "ta'zirini berib qo'yishga intilish" (qasddan to'polonlarni keltirib chiqarish, jamaoa

a'zolarini pedagogga bo'y sunmaslikka undash, mashg'ulotlarning tashkil etilishiga halaqt berish va boshqalar).

Ta'lim oluvchilar tomonidan yuqorida qayd etilgan xatti-harakatlardan birortasining sodir etilishi nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Aynan nizoli vaziyatlar o'z-o'zidan pedagogik nizolar turlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu o'rinda M.M.Ribakova pedagogik vaziyatlar va ularga bog'liq nizolarni quyidagi turlarga ajratadi [86, 3]:

1) talabaning o'quv topshiriqlarini bajarishi, o'zlashtirishi, o'qishdan tashqari faoliyati bilan bog'liq vaziyatlar (yoki nizolar);

2) talabaning institut yoki universitetda, xususan, darslarda va institut yoki universitetdan tashqari sharoitlarda ijtimoiy xulq qoidalariga riosa etmasligi oqibatida sodir etiladigan harakatlarni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar (nizolar);

3) talabalar va pedagoglar munosabatlariiga asoslanuvchi pedagogik jarayonda ularda shaxsiy hissiy holatlarning namoyon bo'lishi bilan bog'liq vaziyatlar (nizolar).

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan pedagogik vaziyatlar va nizolar turlari turli xildagi institut yoki universitetdagi vaziyatlar va nizolarda pedagogga yo'l ko'rsatish amaliy maqsadini ko'zlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumaev R.Z. Konfliktologiya asosları, asosiy tushunchalar va tamoyilları. O'quv qo'llanma. – Samarqand. 2015. – bet 156. (Fundamentals of Conflictology: Main Notions and Principles)
2. Xujaniyozova Z., Dusmetova M., Nafasov D. Pedagogik konfliktologiya (O'quv uslubiy qo'llanma). – Urganch. 2015. – bet 211. (Pedagogical Conflictology)
3. Baybaeva M.X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – T.: 2022. Special Issue 4-2. – bet 403-411. (Modern Approaches on the Creation of Healthy and Creative Environment in Leaders' Administrative Activity)
4. Baybaeva M.X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli // Integration of science, education and practice ilmiy-metodik jurnal. – T.: 2022. №. 5. – bet 59-66. (The Role of Women Leaders in Administration Activity of Education Institutions)
5. Ismailova Z.K., Baybaeva M.X. Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish // Life Sciences and Agriculture. – T.: 2020. №.2-2. – bet 185-188. (Development of Conflict Competency of Leaders in Solving Disputable Circumstances)
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. – bet 107. (Critical Analysis, Strict Discipline and Personal Liability must be the Daily Principles of Every Leader's Activity)
7. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019. – bet 120. (Development of Mechanisms of Professional Competency Improvement of Higher Education Institution Leaders and Pedagogical Personal)